O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDAGI NIZOLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nusratova Minojatxon Urmonovna
Andijon tumani 8-umumta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: *ushbu maqolada ta’lim nizimida yuzaga kelayotgan nizoli vaziyatlar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish omillari haqida so`z boradi*

**Kalit so`zlar:** *nizoli vaziyatlar, ta’lim, muammo manfaatlar to`qnashuvi*

Bugungi kunda pedagogika fani oldida ta’lim mazmunini modernizatsiyalash va uning o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq bo‘lgan keng doiradagi vazifalar yechimini topish zarurati dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmokda. Shunday ekan bu muammoni hal etish uchun biz birinchi navbatda o‘qituvchi faoliyatiga alohida urg‘u berishimiz zarur.

Ma’lumki, ta’lim islohatlarini amalga oshirishda o‘qituvchi faoliyati asosiy o‘rinni egallaydi. O‘qituvchi omili yoshlarning g‘oyaviy-siyosiy bilimlarni egallashlari orqali kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda asosiy hisoblanadi. Davr taraqqiyoti va ehtiyojlari asosida o‘qituvchi “shaxsi”ni rivojlantirish, pedagogik-psixologik ta’sir etish vositasida ulardagi qobiliyat, qiziqish, iste’dod, e’tiqod hamda amaliy ko‘nikmalarni shakplantirish bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Hozirgi kun texnik rivojlanish davrida ba’zi o‘qituvchilarning kompyuter savodxonligining yo‘qligi, o‘z vazifasiga sovuqqonlik bilan yondoshishi, kasbiy-shaxsiy bilim, ko‘nikma va malakalarining to‘la shakllanmaganligi, pedagogik maxoratining yetishmasligi, o‘z kasbining pedagogik-psixologik mohiyatini tushunmasligi kabilar yoki aksincha ularning o‘z qobiliyatlarini ko‘rsatishda ba’zi bir kamchiliklarning hali xano‘zgacha mavjudligi zamonaviy o‘qituvchi qiyofasini shakllantirishga salbiy ta’sir etuvchi asosiy omillar bo‘lib qolmokda. Shunday ekan ta’lim samaradorligiga erishish uchun bo‘lajak o‘qituvchi ishini tashkil etishda “Pedagogik va psixologik masalalar” bo‘yicha davlat talablarini keltirib o‘tamiz:

• halq ta’lim tizimida pedagogik va psixologik xizmat, uning maqsad va vazifalarini bilishi;

• pedagogik-psixologik tadqiqot metodlarini bilishi va o‘z faoliyati davomida ulardan foydalana olish malakasiga ega bo‘lishi;

• o‘zbek halqining etnopsixologik xususiyatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi;

• pedagogik hamkorlik psixologiyasini bilishi va uni amaliyotda ko‘llash malakasiga ega bo‘lishi;

• pedagogika va psixologiyaning sohalari, uning nazariy-amaliy masalalari haqidagi tasavvurga ega bo‘lishi;

• pedagogik qobiliyat turlarini bilishi va egaplashi;

• psixologik-pedagogik tashhis va uning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi o'rnini, rolini bilish, ayrim psixologik tashhis metodikalaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishi;

• yosh davrlar psixologiyasi, bola ruhiy rivojlanishining yosh xususiyatlari, bola shaxsi shakllanishida ijtimoiy va tabiiy omillarning roli haqida zamonaviy ta'limotlardan xabardor bo'lishi;

• o'quvchilarni tarbiyalashda " oila, maktab, mahalla hamkorligi" konsyepsiyasining asosiy g'oyalarini bilish. Ota-onalar balan ishlashda oiladagi shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsining shakllanishiga ta'siri haqidagi psixologik bilimlardan foydalana olishi;

• ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik-psixologik muammolari, izlanishlar, bu sohadagi yangilik va yutuqlarni kompyuter muloqot tizimi asosida ish ko'rishi va ma'lumotga ega bo'lishi lozim;

• pedagogik jamoa va o'quvchi-tarbiyachilar guruhidagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlari haqida jamoadagi psixologik iqlim va uni yaxshilash yo'llari haqida bilimlarga ega bo'lishlari kerak.

Bu talablarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lajak o'qituvchi, o'z o'quvchisiga: aqliy psixologik qobiliyat, oliyjanoblik, ma'naviy yetuklikni va boshqa yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalay oladi. Bu jarayonda G.Boymurodova o'qituvchi va o'quvchilarning yoshiga hos pedagogik-psixologik individual xususiyatlarni quyidagicha klassifikatsiyalaydi:

• o'quvchilarni ongli intizomga rioya qilishga odatlantirish;

• pedagogik faoliyatda adolatli yo'l tutish;

• sinf yoki auditoriya jamoasidagi tarbiyaviy ishlarni izchil olib borish;

• o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag'batlantirib borish;

• berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishni talab qilish;

• sinf yoki auditoriya faollari harakatini qo'llab-quvvatlash kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq deb ta'kidlab o'tkanlar.

Shu munosabat bilan butun dunyoda bo'lgani kabi bizning Respublikamizda ham ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uning mazmunini boyitish sohasida jadal pedagogik-psixologik harakatlar amalga oshirilmoqda. Bunda o'quvchining amaliy faoliyatidagi kamchiliklarini bartaraf etish va shaxsiy tajribasidan foydalanish yo'llari izlanmoqda.

Ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarni bartaraf qilishning ayrim pedagogik va psixologik jihatlari, masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotga oid izlanishlar shuni ko'rsatdiki, nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablardan birinchisi o'qituvchining o'z kasbiga qiziqmasligi, o'z kasbining moxlyatini yaxshi bilmasligi, o'quvchilarga berayottan bilimining sayyozligi, qo'polligi, extiyotsizligi, o'quvchi va ota-onalar bilan muomala qilish tajribasining yetishmasligi, o'quvchining qalbiga yo'l topa olmasligidir.

Nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablardan yana biri psixolog I.V.Straxov aytganidek, ayrim o'qituvchilarning pedagogik takt maxoratiga ega emasligidir. Nizolarni bartaraf etish

uchun tarbiyaviy ta’sirni oshirish maqsadida pedagogik va psixologik choralarga e’tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni inobatga olish, o‘quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur psixologik holatlarni hisobga olish zarurdir.

Shunday ekan, ta’lim muassasalarida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolarni bartaraf qilishning ayrim pedagogik va psixologik jihatlari, masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotga oid izlanishlar asosida ulardan ba’zilarini keltiramiz:

Ism. O‘quvchidan jahlingiz chiqib turgan takdirda ham unga ismini aytib murojaat qiling. Bu unga qilingan murojaatga muloyim-talabchan harakter baxsh etadi. SHuni ham e’tiborga olish lozimki, aynan o‘smirlar o‘zlarining ismlarini ko‘p eshitmaydilar. Maktabda ularga ko‘pincha familiyalarini aytib murojaat qiladilar: «Sen, Valiyev, yana bezorilik kilyapsanmi!», «Bugun Xo‘jayeva javob beradi» O‘smirlar bu yoshda bir-birlarini lakablarini yoki ismlarini chala aytib chakiradilar, ota-onalar esa quyidagicha shaklda o‘smirga murojaat qshtadilar: «Menga qara, darsingni qildingmi?», «Uyalmaysanmi, doim senga o‘z vazifangni eslatib turish kerak!» va x.k. Axir har bir kishi o‘zining ismini leksik boyliqsagi eng yaxshi so‘z deb hisoblaydi va uni eshitib, o‘quvchi darhol inson bilan ishonchli muloqotga kirishadi.

Muloqotning «noverbal» vositalarn va tinglash ko‘nikmasn. O‘qituvchining o‘quvchi bilan muloqotida nutqning mazmuni bilan birga mimika, ohang, nutq intonatsiyasi ham katta ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, kattalar bilan muloqot intonatsiyasi 40% axborotga ega ekan. Bola bilan muloqotda esa intonatsiyaning ta’siri ortadi. Bola kattalarning o‘ziga qaratilgan murojaatining intonatsiyasiga qarab, ularning o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini bilib oladi U «hissiy eshitish»ga ega. Unga qarab bola aytilgan so‘zlarning mazmun-ma’nosini hamda kattalarning munosabatini bilib oladi. So‘zlarni idroq qilganda u avvalo intonatsiyaga javoban harakat qiladi, shundan so‘nggina aytilgan so‘zning ma’nosini ilg‘aydi. Intonatsiyada kattalarning bolaga qaratilgan nugqidagi kechinmalar namoyon bo‘ladi va bola unga javoban harakat qiladi.

Tinglang. O‘qituvchi ham o‘quvchini tinglashi va eshita olishi lozim. O‘qituvchi nutqining samaradorligi o‘quvchining tinglay olish ko‘nikmasiga bog‘liq bo‘ladi. Buni esa bir qator sabablarga ko‘ra bajarish oson emas: birinchidan, o‘quvchidan bir maromdagi va bir-biriga bog‘langan nutqni kutish qiyin. SHunga ko‘ra kattalar o‘z nutqini ko‘pincha bo‘lib gapiradilar. Shu bilan so‘z iboralarini yanada qiyinlashtiradilar («Mayli, hammasi tushunarli, bor!»), ammo u o‘zi uchun eng asosiysini gapirmagan bo‘ladi. Ikkinchidan, o‘quvchi gapirishni istaganda, o‘qituvchining tinglash uchun har doim ham vaqti bo‘lavermaydi, o‘qituvchi nimanidir bilmoqchi bo‘lganda esa, o‘quvchi o‘zining suhbatga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotgan bo‘ladi, ha, tinglamaydiganlar bilan gaplashish kimni ham qiziqtirardi.

Ta’na, Bolaning yaqinlarini yuziga solib, ta’na kilmang! Hech qachon o‘quvchini, ayniksa o‘smirni, oilasidagi notinchliklarni, ota-onasi, aka-ukasi, opa-singillarining axlokini yuziga solib, malomat kilmaslik kerak. Bunday ta’na uchun o‘quvchilar o‘qituvchilarni hech

qachon kechirmaydilar! O‘qituvchi bunday qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yib qo‘yadi. O‘quvchining ko‘z oldida o‘zining o‘qituvchi va katta kishi sifatidagi obro‘sini yo‘qotadi. Ammo, afsuski, ushbu qoidaning buzilishi tez-tez uchrab turadi. Har bir kishi ota-onasi qanday bo‘lmasin ularga nisbatan muqaddas hislarga ega bo‘ladi.

Hulosa qilib aytadigan bo`lsak nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi omillar to`g`ri anglab yetilmas ekan, uni bartaraf etish uchun qilingan sa’yi harakatlar ham o`z natijasini bermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Baubekova G. «Pedagogicheskoe masterstvo»T.: 2000g.

2. Juravlev V.I. Osnovi pedagogicheskoy konfliktologii. – M.: Rossiyskoe pedagogicheskoe age ntstvo, 1995.

3. Mijerikov V.A., Ermolenko M.N. Vvedenie v pedagogicheskuyu deyatelnost. – M.: 2002.

4. Azizxodjaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.